# OG‘IR ANEMIYA FONIDA YO‘LDOSHNING MUDDATIDAN OLDIN KO‘CHISHIDA CD31 EKSPRESSIYASINING ENDOTELIAL DISFUNKSIYA MARKERI SIFATIDAGI AHAMIYATI

**Ortikova Feruzaxon Mahmudovna[1],**
**Axmadjonova Gulnoza Murodovna[2],**
**Nasimova Nigina Rustamovna[1]**
[1] Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston Respublikasi
[2] Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O‘zbekiston Respublikasi
**DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22870396**

**Dolzarbligi**

Normal joylashgan yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishi homiladorlikning og‘ir akusherlik asoratlaridan biri bo‘lib, ona va perinatal kasallanish hamda o‘lim xavfining oshishi bilan tavsiflanadi. Ushbu patologiya rivojlanishida yo‘ldosh tomir tizimidagi o‘zgarishlar, endotelial disfunksiya, mikrotsirkulyatsiya buzilishi va surunkali gipoksiya muhim patogenetik ahamiyatga ega.

Og‘ir anemiyada qonning kislorod tashish imkoniyatining keskin kamayishi to‘qimalarda surunkali gipoksiyaga, endotelial disfunksiyaga va tomirlarning qayta shakllanish jarayonlari buzilishiga olib keladi. Natijada xorion vorsinkalarining vaskulyarizatsiyasi pasayib, surunkali platsentar yetishmovchilik rivojlanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

CD31 (PECAM-1) endotelial hujayralarning muhim immunogistokimyoviy markeri bo‘lib, hujayralararo adgeziya, tomir devori yaxlitligini saqlash va angiogenez jarayonlarida ishtirok etadi. Shu sababli platsenta to‘qimasida CD31 ekspressiyasini o‘rganish endotelial shikastlanish darajasini obyektiv baholash imkonini beradi.

**Tadqiqot maqsadi**

Og‘ir anemiya fonida normal joylashgan yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishi kuzatilgan homilador ayollarda platsenta to‘qimasida **CD31 ekspressiyasining immunogistokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish va uning endotelial disfunksiyani baholashdagi ahamiyatini aniqlash**.

**Material va usullar**

Tadqiqotda **52 nafar homilador ayolning platsenta to‘qimasi** tekshirildi. Asosiy guruhni og‘ir temir tanqisligi anemiyasi fonida normal joylashgan yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishi kuzatilgan **42 nafar bemor**, nazorat guruhini esa homiladorligi va tug‘ruq jarayoni fiziologik kechgan **10 nafar ayol** tashkil etdi. Asosiy guruhda og‘ir anemiya mezoni sifatida gemoglobin miqdorining **70 g/l dan past** bo‘lishi qabul qilindi.

Platsentaning markaziy va periferik qismlaridan, shuningdek, ko‘chish sohasiga yaqin joylashgan qismlaridan to‘qima namunalari olindi. Material 10% neytral buferlangan formalinda fiksatsiya qilinib, parafinga quyildi. Immunogistokimyoviy tekshiruvda terminal vorsinkalar kapillyarlari endoteliysida CD31 ekspressiyasi baholandi. Har bir preparatda ×400 kattalashtirishda kamida 10 ta ko‘rish maydoni tahlil qilindi.

**Natijalar**

Nazorat guruhida CD31 ekspressiyasi vorsinkalardagi kapillyarlar va yirik tomirlarning endotelial qatlamida uzluksiz, chiziqsimon va yaqqol musbat ko‘rinishda aniqlandi. Ushbu holat platsenta mikrotsirkulyator tomirlarining strukturaviy yaxlitligi saqlanganligini ko‘rsatdi.

Og‘ir anemiya va yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishi kuzatilgan asosiy guruhda esa CD31 ekspressiyasining sezilarli buzilishi aniqlandi. Ayniqsa, retroplatsentar gematoma va ishemik infarkt o‘choqlari atrofida CD31 ekspressiyasi keskin fragmentatsiyalangan yoki ayrim sohalarda umuman aniqlanmagan. Yirik tayanch vorsinkalar arteriyalarida endotelial qatlam deskvamatsiyasi bilan bog‘liq mahalliy CD31 ekspressiyasi nuqsonlari kuzatildi.

Immunogistokimyoviy tekshiruvda terminal xorion vorsinkalari kapillyarlarida CD31-musbat endoteliotsitlarning notekis taqsimlanishi, bo‘yalish intensivligining o‘choqli pasayishi va faol kapillyarlar sonining kamayishi qayd etildi. Shu bilan birga, mikrotsirkulyator tomirlar arxitektonikasining buzilishi aniqlandi.

Aniqlangan o‘zgarishlar platsenta tomir endoteliysining shikastlanishi, endotelial hujayralar o‘rtasidagi aloqalarning buzilishi va tomirlarning fiziologik remodellanish jarayonlari izdan chiqishini ko‘rsatadi. Bu holat platsentar mikrotsirkulyatsiyaning yomonlashishi va surunkali gipoksiya rivojlanishi bilan kechgan.

**Xulosa**

Og‘ir anemiya fonida normal joylashgan yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishida platsenta tomirlarida **CD31 ekspressiyasining pasayishi va fragmentatsiyasi** yaqqol endotelial disfunksiyani aks ettiradi.

CD31 ekspressiyasining kamayishi endotelial qatlam yaxlitligining buzilishi, faol kapillyarlar sonining kamayishi va platsentar mikrotsirkulyatsiya izdan chiqishi bilan kechadi. Shu sababli **CD31 platsentadagi endotelial shikastlanish va tomir disfunksiyasini baholash uchun informativ immunogistokimyoviy marker sifatida qo‘llanilishi mumkin**.